



MUHAMMAD ALINING “MANGU QUYOSH” ROMANIDA ALISHER NAVOIY OBRAZIGA TAVSIF

Usmonova Sharifa Gulamovna

University of economics and pedagogy NOTM assistenti

Email: gulamovna1973@gmail.com

+998979934989

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10650063>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 05-February 2024 yil

Ma'qullandi: 08- February 2023 yil

Nashr qilindi: 12- February 2023 yil

KEY WORDS

roman, mutafakkir, quyosh,
yalakat mag'iz, ma'naviyat,
sadoqat, do'stlik.

ABSTRACT

Ushbu maqolada Muhammad Alining “Mangu quyosh” romanida A.Navoiy obrazining yaratilishi keng tahlil qilingan. Maqolada A.Navoiyning qarashlari, fikrlari, o'ylari, tarixiy jarayondagi holatlarga bahosi, shuningdek, do'stlikning qadri masalalari o'rganilgan.

Milliy istiqlol navoiyshunoslikning yangi takomil bosqichiga ko'tarilishiga zamin yaratdi. Mustaqillikkacha ulug' mutafakkir asarlarining o'n besh jildligi nashr etilgan bo'lsa, milliy istiqlolga erishilgach, shoir asarlarining yigirma jildligini mutolaa qilish imkoni tug'ildi. Sho'rolar zamonida to'liq nashr etilishi mumkin bo'lmagan “Nasoyim-ul muhabbat”, “Tarixi anbiyo va hukamo”, “Siroj-ul muslimin”, “Arba'in” singari asarlari dunyo yuzini ko'rdi. Munojot, hamd, na'tlari muayyan darajada o'rganildi. Shoir she'riyatida Qur'oni karim oyatlarining badiiy talqini masalasi monografik asosida alohida tadqiq qilindi.¹

Globalashuv jarayoni tobora avj olib borayotgan hozirgi paytda buyuk shaxsiyat egasi va milliy qadriyatlar tajassumi bo'lgan Alisher Navoiyning badiiy siymosini yaratish va shu turdagi asarlarni tadqiq etishga katta zarurat sezilmoqda. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, “Alisher Navoiy asarlarida teran ifoda topgan milliy va umuminsoniy g'oyalarning jahon tamaddunida tutgan o'rnini hamda o'sib kelayotgan yosh avlodning intellektual salohiyatini oshirish, ular qalbida yuksak axloqiy fazilatlarini tarbiyalashdagi beqiyos ahamiyatini nazarda tutib, shuningdek, ulug' shoir va mutafakkirning adabiy-ilmiiy merosini mamlakatimizda va xalqaro miqyosda yanada chuqur tadqiq qilish va keng targ'ib etish” nihoyatda muhim.² O'zbek adabiyotida Alisher Navoiyning hayoti va ijodini o'rganish quyoshiga tikka qaray olgan adiblar ozchilikni tashkil etadi. Ular: Oybek, Izzat Sulton va Uyg'un, Isajon Sulton, Muhammad Alidir.

Avvalo shuni ta'kidlash joizki, adabiyotimiz tarixida Alisher Navoiyning to'laqonli badiiy siymosini yaratishga bo'lgan urinishlar u qadar ko'p emas. Oybekning “Navoiy” romani (1944), Uyg'un va Izzat Sultonning “Alisher Navoiy” dramasi (1945), Omon Muxtorning “Ishq ahli” (2007) romanlarida Alisher Navoiy siymosi tarixiy-ijtimoiy voqealar markazida badiiy

¹ Bu haqda qarang: Jabborov N. Maoniy ahlining sohibqironi. Monografiya. - Toshken.: Adabiyot, 2021. B-3

² Bu haqda qarang: G. Ashurova, Mustaqillik davri o'zbek adabiyotida A. Navoiy obrazi

talqin etiladi. Bu asarlar ichida Navoiy shaxsiyatining nisbatan to'laqonli, konseptual badiiy qiyofasi Oybekning "Navoiy" romanida ifodalangan desak, mazkur asarning yozilganiga qariyb sakson yil bo'lganini e'tibordan qochirmasligimiz lozim. Ya'ni o'tgan sakson yil davomida ijtimoiy shart-sharoit ham, tuzum ham adabiy-estetik qarashlar ham, hatto, tarixning o'zi ham yangilanganini hisobga olishimiz zarur.³

Quyosh yog'du sohib turar ekan, zulmatga o'rin qolmaydi. Tabiatning bu qonuni insoniyat jamiyati hayotiga ham birday daxldordir. Milliy adabiyotimizni jahon badiiy estetik tafakkurining cho'qqisiga olib chiqqan Alisher Navoiy o'zbek va qardosh turkiy xalqlar ma'naviyatining zavol bilmas quyoshidir. Aslida, bobokalonimizni quyoshga tashbeh etish yangilik emas. Zamondoshi Davlatshoh Samarqandiyning mana bu so'zlari ham ushbu fikrni tasdiqlaydi: "Oftobni ta'riflash aql qisqaligidan nishona, toza mushk fazilati haqida qissani cho'zish johillik alomatidir. Bu ulug' amirning maqbul ishlari va qutlug' zikri rub'i maskunning barcha mamlakatlarida ma'lum, fazilatining dabdabasi va oliy himmatining kamoloti butun olamg'a yoyilgandir... Bu ulug' amir din-u davlat homiysi, millat va shariatning pushti panohidir" Yoki Husayn Voiz Koshifiy fikricha: "Amir Navoiy kamolot osmonidagi yulduz, buyuklik cho'qqisida nur sochar quyoshdir". Haqiqatan ham buyuk mutafakkir asarlari necha zamonlardan buyon quyosh yanglig' adabiyotsevarlar qalbini ma'rifat yog'dulari bilan munavvar etib kelayotir.¹

Alisher Navoiy obraziga adibimiz Muhammad Ali ham murojaat etib, shoirning diniy va dunyoviy qarashlarini, fikrlarini erkin bayon etishga harakat qilgan. Romanni o'qish davomida Navoiy obrazi tobora shakllanib, daholashib, ilohiylashib boradi. Kitobxonni haqiqatan ham Navoiy kim, degan savol o'ylantiradi. Shu o'rinda birinchi Prezidentimizning Alisher Navoiy haqida aytgan fikrlarini keltirib o'tishni lozim deb topdik. "Agar bu ulug' zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak shoirlarning sultonidir".⁴ Darhaqiqat, Navoiy shaxsi buyuk, g'azal mulking sultoni, haqiqiy do'st, "Xamsa" dostonini ona tilida insho etgan adib, millat homiysi, darvishlarning seviklisi, sevganiga vafodor inson sifatida romanda tasvirlangan. Navoiy haqida yozilgan boshqa asarlardan farqli o'laroq ushbu romanda Navoiyga "sevganiga vafodor inson" degan ta'rif berilgan.

"Mangu quyosh" romanida Navoiy haqiqiy do'st sifida ko'rsatilgan. Bu do'stlikning hukmini ustoz Shayx Savsaniy e'tirof etgan. U Husayn bilan Navoiyning do'stligini yalakat mag'izga o'xshatadi. Yalakat mag'iz, bu-qo'sh mag'iz, boshqacha aytsak, egizak mag'izdir "...Sizlarning do'stligingizni dunyoda hech narsa, hech narsa!-buza olmasun! Hech narsa bir-biringizdan ayira olmasun! Do'stligingizdan olam hayratda qolsun!... Alisher va Husayn -yalakat mag'iz, bir-biringiz uchun bo'ling azizdan aziz! Bunday do'stlik uchun ont ichmak, qasamyod qilmak vojib sanalur!"⁵ Bu do'stlik qasamyodiga Navoiy umrining oxirigacha sodiq qoldi. Husayn Boyqaro mastlik oqibatida sevimli nevarasi Mo'min Mirzoni qatl ettirganida Xondamir quyidagi fikrlarini aytadi: "Shunday ...qabohatga yo'l qo'yg'on kishi bilan do'stlashmoq mumkinmu? Sizga jonim achig'ondan achiydu, Hazratim! Bundoq kishidan yuz o'girmoq eng to'g'ri yo'ldir! Navoiyning bunga javobi juda ham faylasufona javob bo'lgan." Oh, Xondamir! Xondamir! Nozik joydan oldingiz... Podshohdan yuz o'giring, deysiz... Qandoq yuz

³ Bu haqda qarang: S. Quronov. "Alisher Navoiy" romanida tarixiy shaxs konsepsiyasi " "Ilmiy xabarnoma. Gumanitar tadqiqotlar" – № 5. 2021 y.

⁴ Bu haqda qarang. I.A. Karimov. "Yuksak ma'naviyat –yengilmas kuch" Toshkent: Ma'naviyat, 2008 .B-47

⁵ Bu haqda qarang. Muhammad Ali. "Mangu quyosh" Toshkent: G'G'ulom, 2023 B-22

o'giray? Sultoni Sohibqiron birlan bir umrlik do'stdirbiz, umrimning boyligi Sulton Husayn Mirzo birlan do'stligimdir. Umrim poyoniga yetib turg'onda, nogahoniy sabab deb, qandog' qilib bir umrlik toat-ibodatimdan ayrilay, bu dunyoligimni sovuray? Oxiratim kuyib ketadiku!..."Mo'min Mirzo mening ham ardoqli shahzodam edi...Uning musibati nechog'lik og'ir esa-da , bizning Sultoni Sohibqiron bilan do'stligimizga daxl qilmakdin ojizdur!..."⁵ Yuqoridagi satrlarning o'zi Navoiyning do'stiga bo'lgan mehr-muhabbatining chegara bilmasligini, ushbu do'stlikka hech qanday g'ov to'siq bo'lmasligini ko'rish mumkin. Qay holatda bo'lsa ham Navoiy do'sti bilan faxrlanadi, o'zining butun shijoatini, aql-idrokini, salohiyatini, umrini uning saltanati ishlari rivojiga, ravnaqiga baxshida etib qo'ygan, fido qilishga tayyor! Uning birinchi suyanchi Alloh, ikkinchisi do'sti Sulton Husayn Mirzodur...

Ushbu romanda Navoiy ota bilan bola munosabatlarini ham yaxshilashga qaratilgan bir qancha tadbirlarni amalga oshirganligini ko'rishimiz mumkin. Ayniqsa, farzandining fojeali o'limidan keyin, otasi bilan munosabatlari keskinlashgan bir paytda Navoiy ularning ziddiyatlarini to'g'rilashga harakat qilgan va bunga erishgan.

"Mangu quyosh" romanini o'qish davomida, ayniqsa, Navoiy haqida yozilgan boshqa asarlardan farqli o'laroq bu asarda Navoiyning sevgilisi masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Bu bilan barcha o'quvchilarni qiziqtirgan savolga javob topilgan. Alisher Navoiyning sevgan qizi bo'lganmi, bo'lgan bo'lsa, u kim va bu ishq mo'jizasi qachon yuz bergan, kabi savollar yechimi qiziqtiradi. Chunki avvalgi yozilgan romanlarda shoir sevgisi haqida kitobxon o'qishga muyassar bo'lmagan. Ushbu romanda bu savolga jabob topilgan. Navoiy ham inson, uning ham boshiga sevgi, ishq tushgan. Bu uni ayni yosh vaqtida yuz bergan. Buning uchun adib romanda ilohiy, bokira sevgi necha yoshda paydo bo'ladi deb savol qo'yadi. "12-16" yoshlarda!"- degan qarorga keladi. Alisher bilan Bad'euljamol sevgisi bir zumlik, osmonda chaqmoq chaqqanday yorqin va sassiz edi. Ular sevgisining jarangi ham Haqqa bo'lgan ishq kabi sassiz edi. Haq-mutloq, insonlar esa o'tkinchi.⁶

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Jabborov N. Maoniy ahlining sohibqironi. Monografiya. -Toshken:. Adabiyot, 2021.
2. G.Ashurova. Mustaqillik davri o'zbek adabiyotida A.Navoiy obrazi Toshkent:Qamar Mediya, 2023.
- 3.S.Quronov. "Alisher Navoiy"romanida tarixiy shaxs konsepsiyasi" "Ilmiy xabarnoma.Gumanitar tadqiqotlar"-5.2021 y
- 4.I.A.Karimov."Yuksak ma'naviyat -yengilmas kuch"Toshkent:Ma'naviyat, 2008
- 5.Muhammad Ali."Mangu quyosh"Toshkent:G'G'ulom, 2023
- 6.T.Shirinov."Quyosh-haqiqat degani"."Mangu quyosh" Toshkent:G'G'ulom, 2023